




**SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

The top half of the cover features a background image of a business meeting. A person in a suit is visible, with a large, semi-transparent blue and green bar chart and a white line graph overlaid on the scene. A large, 3D-style arrow in shades of red, blue, and green points upwards and to the right, crossing the boundary between the top and middle sections.

**SURXONDARYO
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

2022- YIL YANVAR-NOYABR (DASTLABKI MA'LUMOT)




Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2022- yil yanvar-noyabr oyida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-noyabr oyida Viloyat korxonalari tomonidan 6547,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 104,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 88,0 % ni tashkil etdi.




B

Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash




C

Ishlab chiqaradigan
sanoat



D



Elektr, gaz, bug' bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash



E

Suv bilan ta'minlash;
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va
utilizatsiya qilish


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 41,0 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish – 7,5 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 196,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,0 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	253,8	255,1	1,3
Neft, ming t.	78,4	78,1	-0,3



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	23,9	20,1	-3,8
Chaqiq tosh, ming t.	75,7	58,5	-17,2

Ishlab chiqaradigan sanoat



2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5757,6 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 88,0 % ini tashkil etdi.


2021- yil yanvar-noyabr

89,8 %

2022- yil yanvar-noyabr


88,0 %


O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2021- yilning yanvar-noyabr oylarida – 0,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 0,5 % (0,5 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 22,9 % (23,3 %) va quyi texnologiyalisi – 64,3 % (65,3 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 0,1 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,8 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 40,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 45,0 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 23,6 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,1 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,8 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






2022- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 14,5 ming tonna paxta tolasi (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 86,5 % ga kamaygan), 15,1 ming tonna boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (66,0 % ga kamaygan), 2,4 ming tonna lint (33,3 % ga kamaygan), 56,6 ming tonna neft bitumi (99,2 % ga kamaygan) hamda ishlab chiqarilib, kam o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	16,7	14,5	-2,2
Paxta tiviti (lint), ming t.	7,1	2,4	-4,7
Neft bitumi, ming t.	57,1	56,6	-0,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	106,9	94,9	-12,0
Saryog', t.	2,0	1,1	-0,9
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	3,1	2,8	-0,3

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 84,2 bo'lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa, 40,8 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 50,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 8,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 109,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 10,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 162,0 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 589,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 106,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,0 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 1326,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 73,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 73,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 33,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 39,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 112,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 40,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 102,9 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2347,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 123,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,2 %, fizik hajm indeksi 66,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 240,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 160,3 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 91,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 25,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 100,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,6 % ni, fizik hajm indeksi 102,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 492,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 215,5 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 117,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 38,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 487,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,4 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 141,0 % ga oshganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	175,2	230,7	55,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	33,1	30,9	-2,2

Yanvar-noyabr

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 106,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ini) tashkil etdi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	4,2	4,3	0,1
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	22,0	26,9	4,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 54,3 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 4,3 mlrd. so'm shuningdek, 26,9 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2364,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 106,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 36,1 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-noyabr

48,5 %

2022- yil
yanvar-noyabr

47,1 %

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-noyabr

51,5 %

2022- yil
yanvar-noyabr





52,9 %

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,7 % (2021- yil yanvar-noyabr oylarida 2,1 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sho'rchi tumani 15,4 % ni, 14,7 % Jarqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelib Termiz sh. 15,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Viloyat o'sish sur'ati (106,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Termiz (134,5 %), Sho'rchi (129,6 %) va Jarqo'rg'on (125,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shaxrida 15,8 % ni, Sho'rchi tumani 15,4 % ni, Jarqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelib 14,7 % ni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelib 16,4 % ni, shuningdek, Denov tumani 10,9 % ni, Sho'rchi tumani 10,2 % ni, Termiz shahri esa 17,6 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyati

2020- yil

4429,2 mlrd. so'm

2020- yil yanvar-noyabr

2021- yil



5836,2 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-noyabr

2022- yil


6547,1 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-noyabr




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz shahri (6013,7 so'm), Jarqo'rg'on (4699,1 ming so'm), Termiz (4170,1 ming so'm) hamda Sho'rchi (3033,4 so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2366,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.






Surxondaryo viloyati



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 854,9 ming so'm bo'lgani holda, Termiz shahrida – 1940,8 ming so'mni, Termiz tumanida – 1870,6 ming so'mni, Sho'rchi tumanida – 1652,3 ming so'mni va Jarqo'rg'on tumanida – 1520,2 ming so'mni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyati



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2709,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 41,4 % ni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyati

2020- yil

1905,6 mlrd. soʻm

2020- yil yanvar-noyabr

2021- yil

2709,2 mlrd. soʻm

2021- yil yanvar-noyabr

2022- yil

2709,1 mlrd. soʻm

2022- yil yanvar-noyabr



43,2 %

2020- yil

2020- yil yanvar-noyabr

47,1 %

2021- yil

2021- yil yanvar-noyabr


41,4 %

2022- yil

2022- yil yanvar-noyabr

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4841 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 842 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,4 % i) Termiz shahriga, 549 tasi (11,3 %) Denov tumaniga, 393 tasi (8,1 %) Sho'rchi tumaniga, 323 tasi (6,7 %) Jarqo'rg'on tumaniga va 318 tasi (6,6 %) Qumqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan

